

# **NAVOIY SHE'RIYATINING BADIYATI**

**Ta'lim muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun metodik  
qo'llanma**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro – 2021**

**UO'K 821.512.133.09-1**

**83.3(5Ў36)**

**T 97**

To'raeva, L.H., To'raeva, N.H.

Navoiy she'riyatining badiiyati [Matn] : metodik qo'llanma / L.H.

To'raeva, N.H. To'raeva.-Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. 56 b.

**КБК 83.3(5Ў36)**

**Tuzuvchilar:**

**To'raeva Latofat Haydarovna** - Olot tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 31-IDUMI ning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**To'raeva Nasiba Haydarovna** - Olot tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 9-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**O. Avaznazarov**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**T. Hotamov**, Olot tuman XTBga qarashli 31-IDUMIning oily toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Mazkur metodik qo'llanma viloyat xalq ta'limi boshqarmasi metodika kengashining 2021-yil 15-iyundagi 2/3-sonli yig'ilishi qaroriga asosan viloyat miqyosida ommalashtirishga tavsiya qilingan.

**ISBN 978-9943-7370-7-5**

## Kirish

Badiiy adabiyot borliqdagi narsalarni oddiy aks ettirib qolmasdan, balki badiiy obrazli ifodalashdan iboratdir. Ayniqsa, she'riy san'atlar badiiy adabiyotda ifodaning ta'sirchanligini yorqinroq tasvirlashga xizmat qiladi.

Sharq she'riyati ijodkorlari asrlar davomida betakror timsollar, badiiy lavhalar yaratib, adabiyotimiz badiiyati xazinasini boyitib kelishgan.

Xususan, she'riy san'atlar ko'p yillik tarixga egadir. Bu san'at ijodkorlarimizdan ham, adabiyotshunoslarimizdan ham ko'proq izlanish va bilimni talab etadi.

Bugungi kunda maktab darsliklarimizda ham bir qancha badiiy san'atlar haqida ma'lumotlar berilib, ijodkorlarimiz baytlari asosida ularning mazmun-mohiyati ochib borilgan.

Asosan, 7-,8-,9-sinf darsliklarida o'quvchilarimizning qabul qilish qobiliyatlari darajasidagi san'atlardan namunalar berilib, misollar bilan izohlab o'tilgan.

Ma'lumki, test sinovlari jarayonida ham bir qancha san'atlarga ko'proq urg'u berilyapti. Abituriyentlarimiz va ular bilan shug'ullanuvchi ustozlarimizdan esa ushbu nazariya bo'yicha atroflicha ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi.

Ushbu kitobcha orqali o'quvchilarimizga qulaylik yaratish maqsadida maktab darsliklarida keltirilgan san'atlarni jamlab, ularga qo'shimcha ma'lumotlar kiritishga harakat qilindi. Tanlangan baytlar ham DTS talablariga javob bergan holda deyarli darslikka kiritilgan Navoiyning lirik va epik asarlari asosidadir.

Mumtoz adabiyotimiz go'zalligini idrok etish, teran va chuqur anglash, albatta, kitobxondan kuchli badiiy tafakkur va salohiyatni talab qiladi. Bu borada ma'lum kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsak, shu soha bilimdonlaridan uzr so'raymiz

Zero, niyaytimiz xolis, o'quvchilarimizga imkon qadar yangilik yaratishga harakat qilishdir.

**1.Tardi aks san’ati-** so‘zlar takroriga tayangan lafziy san’at bo‘lib, arabcha “quvmoq” , “teskari qilmoq” ma’nolarini bildirib, misralardagi ma’lum bir so‘zlarning o‘rinlarini almashtirib qo‘llashdir. Bu san’at Navoiy she’riyatining badiiyligini ta’minlashda yetakchilik qiladi.

10-sinf darsligida keltirilgan “ Ko‘zing ne balo qaro bo‘lubdur...” deb boshlanuvchi g‘azali boshdan oyoq tardi aks bilan sug‘orilgan:

Ko‘zing ne **balo qaro** bo‘lubdur } balo qaro  
 Kim jong‘a **qaro balo** bo‘lubdur. } qaro balo

\*\*\*\*\*

Ishq ichra aning **fidosi yuz jon** } fido jon  
 Har **jonki**, sanga **fido** bo‘lubdur } jon fido

\*\*\*\*\*

To tuzdi **Navoiy** oyati **ishq** } Navoiy ishq  
**Ishq** ahli aro **navo** bo‘lubdur } ishq navo

“Ey sabo...” deb boshlanuvchi g‘azalning quyidagi misralarida ham tardi aksni kuzatishimiz mumkin:

Buki qilmishmen **jahon-u jonni** aning sadqasi,

Yuz tuman **jon-u jahondin** yaxshi jononing‘a ayt.

Tardi aksning tugallanmagan va tugallangan ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, bir bayt doirasida mavjud bo‘lsa, tugallangan,

bitta misra yoki qator doirasida bo'lsa tugallanmagan tardi aks hisoblanadi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan va yana quyida ko'riladigan Navoiy g'azalidan parcha tugallangan tardi aks sanaladi:

**Boshingdan oyog'ingacha** xubluq. } Boshindin -oyoq  
**Oyog'din boshingacha** mahbubluq. } Oyog'ingdin- bosh  
( "Saddi Iskandariy")

Majmui **davoni dard** qildi, } davo dard  
**Dardingki** manga **davo** bo'lubdur. } dard davo

( " Ey sabo...: XI sinf)

Tugallanmagan tardi aksga Navoiyning quyidagi baytini keltirish mumkin:

Zulfi savdosi, bu savdoyi boshingda ko'p turur

Bo'lsa **savdo ahli**, tong yo'q, **ahli savdo** birla do'st

7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Navoiyning " Sab' ai sayyor" dostonida ham tardi aks namunalarini uchratishimiz mumkin. Jobirga ta'rif berayotib shunday deydi:

Axzi moli **harom komi** o'lub, } harom komi  
Bo'yla **kom** istabon **haromi** o'lub. } kom haromi

Birov kim zor yig'lab-yig'lab ul zor,

Topib ko'nli el ozoridin ozor

" Farhod va Shirin" IX sinf

**2.Tazod** –narsa va hodisalarni zid qo'llash orqali ifodalanadi. "Anti" so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda antonym yoki zid

ma'noli so'zlar tushunchasiga teng. Ushbu san'atning ham sara namunalarini Alisher Navoiy ijodida juda ko'p uchratishimiz mumkin. Fikrimizning dalili sifatida "Hayrat ul-abror" dostonining 3- maqoloti - " Salotin bobida" keltirilgan quyidagi parchani kuzatamiz:

Shohki ish adl ila bunyod etar,  
Adl buzuq mulkni **obod** etar.  
Kofiri odil ani obod etib,  
Mo'mini zolim ani **barbod** etar.

1-baytda barbod va obod, 2- baytda esa kofir va mo'min hamda obod va barbod so'zlari o'zaro tazodning mukammal namunasini vujudga keltiryapti.

Boshni fido ayla ato boshig'a  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.  
**Tun-kuningga** aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Bu ham "Hayrat-ul abror" dostonidan keltirilgan parcha bo'lib, tazod bilan birga tanosub san'atidan ham go'zal namuna keltirilgan.

Tun-u kun bu yerda tazod san'atini hosil qilgan bo'lsa, bosh, qosh, jism; oy, quyosh kabi so'zlar esa tanosub san'atini hosil qilgan

**Tanosub** - misralarda mazmunan bir-biriga mos so'zlarning keltirilishidir

Bu san'at haqida biz keyinroq to'liq ma'lumot beramiz. Hozir yana tazodga qaytamiz: Navoiy shunday deydi:

Har kishining tavriga loyiq kerak,

Surati holiga muvofiq kerak.

Kimki **ulug‘roq** onga xizmat kerak,  
Ulki **kichikroq** anga shafqat kerak.

Ulug‘roq va kichikroq bu yerda tazodni vujudga keltiryapti.

10-sinf darsligida Navoiyning “Ey sabo” deb boshlanuvchi g‘azalida tardi aksni ko‘rganimizdek , tazod, nido, ishtiyoq, tashbeh san’atlarini ham uchratamiz. Bu tahlillar orqali Navoiy she’riyatining mukammal darajada boyligiga yana bir bor iqrar bo‘lmay ilojimiz yo‘q.

Buki, aning ahd-u paymonida men o‘lsam dag‘i  
**Yaxshi** fursat topsang, ul **bad** ahd-u paymoning‘a ayt.  
Yaxshi – bad ( yomon) tazod bo‘lyapti

Ey sabo,holim borib sarvi xiromoning‘a ayt  
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandoning‘a ayt.

Bundan tashqari,”Ey sabo”undalmasi nido san’atini hosil qilyapti. Nido-inson ko‘nglidagi his –hayajonni kuchli ochib beruvchu, lirik qahramon dunyodagi hamma narsaga ko‘ngliga, tabiatga, hodisalarga murojaati tarzidagi san’at

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi  
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt

Jon-u jonon-ishtiyoq san’ati. Misralarda asosdosh so‘zlarning keltirilishi. Bu haqda keyinroq to‘liq to‘xtalib o‘tamiz.

8-sinfda keltirilgan ba’zi ruboiylarda tazod san’atini uchratamiz:

Eldin qochib ulki, tutsa tog‘ ichra qaror,

**Sovug'ida** yeri bu tog'ning javfida g'or.  
**Issig'ida** makoni andakim, yotmish g'or,  
Olam elining shahlig'idan bor anga or.

Sovuq-issiq tazod san'atini hosil qilgan

10-sinf darsligida keltirilgan “ Saddi Iskandariy “ dostonidagi parchada ham tazodning namunalarini ko'ramiz.

Tanur o'lmayin **kunduz** otashfishon } kecha  
**Kecha** shamda shu'ladin yo'q nishon. } kunduz

Bundan tashqari bu yerda tanosibni ham ko'rishimiz mumkin: yuqorida aytganimizdek bir-biriga mutanosib, ya'ni mos keluvchi so'zlar : sham va shu'la.

Yana “ Saddi Iskandariy “ dostonidan:

**Issig'din** nazar sham'ida xiraliq } issiq  
**Sovug'din** yonar samg'a tiyralig' } sovuq

Jahon ichra bo'lsun **gado**, yo'qsa **shoh**, } gado  
Budur barchaning yo'li beishtiboh. } shoh

**Yigitlik** erur qulluq etmak chog'i } yigitlik  
**Qariliq** erur chunki ketmak chog'i. } qarilik

Kerak ishq ahli **qul** bo'lmoq bu so'zga } qul  
Ki, **shohliq** o'zgadur, oshiqlik o'zga } shoh

(“ Farhod va Shirin”)

Shahga bo'lma shirkatandesh } shoh  
Ishq ichra tengdur **shoh-u darvesh**. } darvesh

(“ Farhod va Shirin”)

**3. Talmeh**-arabcha “nazar solmoq “degan ma’noni bildirib she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlarga ishora qilmoq san’atidir

Ijodkorlar muhabbat mavzusidagi asarlarida, ko‘pincha. “ Layli va Majnun”, “Vomiq va Uzro”, “Tohir va Zuhra “ kabi dostonlarning qahramonlari nomlariga ishora qiladilar. O‘quvchi u yoki bu nomga ishorani ko‘rar ekan, uning ko‘z oldida o‘sha qissa , doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo‘lgan g‘oyani, fikrni , tuyg‘uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o‘quvchi o‘zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti tuyg‘ulari, ma’naviy qiyofasini o‘sha mashhur qissa qahramoni bilan qiyoslaydi. Fikrimizning dalili sifatida Alisher Navoiyning quyidagi baytida talmehlarga ishorani ko‘ramiz:

Sendan o‘rgangan kibi Laylov-u Shirin zulmi kin,

Mendin o‘rganmak kerak Majnun bila Farhod ishq.

\*\*\*\*\*

8-sinf adabiyot darsligidagi “ Meni men istagan...” deb nomlanuvchi g‘azalning quyidagi baytida ham talmeh san’ati keltirilgan.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi Majnunshiorimkim

Buzug‘ ko‘nglimdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

\*\*\*\*\*

Ey xush ul maylkim, anda zarf o‘lsa bir sing‘on safoe,

Jom o‘lur, Getinamo, Jamshid ani ichgan gado.

\*\*\*\*\*

Xizr xattingning ajab yo‘q sabzu xurram bo‘lmog‘i,  
Lab-balab chunkim berur suv chashmai hayvon ango

\*\*\*\*\*

Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib,  
Ayub qilmakim, g‘alat gohi tushar qur‘on aro.

\*\*\*\*\*

Navoiy ijodida yana ko‘plab talmehlarga misollar keltirishimiz  
mumkin.

Shohga xayl o‘lsa fath aning ishididur  
Bir kishi **Rustam** o‘lsa bir kishidur.

\*\*\*\*\*

“Bo‘ldum sanga “ radifli g‘azalidan:  
**Jomi jam** birla **Xizr** suyi nasibimdir mudom  
Soqiyo to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga

[ Jamshid jomi va Xizr alayhisalomga ishora ]

“Bo‘l “ radifli g‘azalidagi quyidagi baytlarda ham talmehni  
uchratishimiz mumkin:

Men chekib anduh, o‘lay ,el joni bo‘lsun ul **Masih**.  
Sovrul, ey charxi nigin, v-ey dahri dun, barbod bo‘l.

[ Masih- Iso Masih, ya’ni tiriltiruvchi ]

Bir oh ila kul bo‘ldim, ey charx tilab topib,  
**Farhod ila Majnung‘a** oshiqlik‘ ishin o‘rgat.

Mumkin emas shahar ichra buyla niyatlig‘, magar  
Shohi g‘oziykim, muyassar bo‘ldi bu davlat anga .

{ Bu yerda shohi g‘oziy deb Husayn Boyqaroga ishora qilyapti. }

9-sinf adabiyot darsida “ Farhod va Shirin “ dostonida ham quyidagi baytda talmeh san‘atidan mohirona foydalanilgan.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo‘sh  
Chu tug‘di o‘tda sayr aylar **Siyovush**.

Siyovush- Eron podshohidan bo‘lgan Kaykovusning o‘g‘li.

Bu yanglig‘ birla umri **Nuh topsoq**,

Badanda ko‘prak ondin ruh topsoq.

“ Farhod va Shirin” IX sinf

**4.Ishtiyoq-** (arabcha –“yorish, bo‘lish, so‘zdan so‘zni ajratish” ) mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at bo‘lib, she‘r yoki nasrda asosdosh, ya‘ni bir o‘zakdan tashkil topgan so‘zlarni ishlatish.

Navoiy she‘riyatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi XI sinf adabiyotida keltirilgan bayt orqali ishtiyoq namunasiga guvoh bo‘lamiz:

Necha zulmkim elga zolim qilur	}	zulum va zolim
O‘z-o‘ziga ko‘prak qilur- Haq bilur		asosdosh
Ki har kim ayon etsa <b>yaxshi</b> qiliq		
Yetar <b>yaxshiliqdin</b> anga <b>yaxshiliq</b>		

Bu yerda yaxshi va yaxshiliq asosdosh bo‘lib, ishtiyoqni vujudga keltiryapti.

IX sinf darsligida “ Farhod va Shirin “ dostonidan keltirilgan parchada ham ishtiyoqni ko‘rishimiz mumkin.

Yana Navoiyda ishtiyoq san’ati qo‘llangan shunday misralar mavjud

Fig‘onkim ko‘nglim olg‘on **dilbarim dildorlig‘** bilmas,  
Bilur oshiqni **g‘amgin** qilmoq-u **g‘amxorlik** bilmas.

Dilbarim va dildorlig‘ so‘zidagi “dil” so‘zi asosdosh so‘zlardir;

G‘amgin va g‘amxo‘rlik so‘zidagi “g‘am” so‘zi, asosdosh so‘zlarni vujudga keltirib, ishtiyoq san’atini hosil qilyapti

Sarvinozim **gul** chog‘i **gulshanga** kirdi, ey nasim  
Ham oni yelpi-yu ham gul yaprog‘in boshig‘a soch.  
Gul va gulshan ishtiyoq.

G‘ussa changidin **navoe** topmadim ushshoq aro  
To **Navoiydek** asir-u **benavo** bo‘ldim sanga

Bu ne insof edi, ey soqiyi dahr <b>O'lar</b> chog'da qadah tutmoq to'la zahr?! <b>O'luk</b> boshig'a tig' urmoq ne ya'ni, Bir –o'q bas, bedarig', urmoq ne ya'ni ?!	}	o'lar, o'luk ishtiyoq
--	---	-----------------------------

V sinf adabiyot darsligidagi “ Hayrat-ul abror “ dostonidan keltirilgan parchada ham ishtiyoqni kuzatishimiz mumkin:

So'zda <b>Navoiy</b> ne desang chin degil, Rost <b>navo</b> nag'mag'a tahsin degil.	}	Navoiy, navo
--	---	-----------------

Qilsa **zulum** ul **zolim** elni qilmag'il ,yo Rab, zabun

Chun **tazallumdur** ishim, doim meni **mazlum** qil.

Zulum, zolim, tazallum, mazlum so'zlari orqali ishtiyoq hosil bo'lyapti.

10-sinf adabiyot darsligida “ Meni men istagan “ g'azalidan keltirilgan parchamizda ham shu san'atni ko'rishimiz mumkin.

Ne **bahra** topqamen andinki, mendin istagay **bahra**,  
 Chu ulkim **bahraye** andin tilarmen, **bahramand** etmas.

Bu yerda bahra, bahraye, bahramand so'zlari orqali ishtiyoq vujudga kelgan

“ Ey sabo...” deb boshlanuvchi g'azalining quyidagi baytida ham ishtiyoqni uchratamiz:

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,

Yuz tuman **jon-u** jahondin yaxshi **jononimg‘a** ayt.

Jon-u, jonon – ishtiyoq

Benavolig‘da Navoiy, o‘lsang

Bazmi vasl ichra navo qilma havas

**5.Tarse’** (arabcha –“gavharni ipga tizmoq” )- mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, baytning bir misrasidagi barcha so‘zlarning keying misradagi muqobillariga qofiyadosh vaznda teng bo‘lishi. Birinchi va ikkinchi misradagi muqobil so‘zlar qofiyadosh bo‘lib vaznda teng biror tenglik buzilsa ham tarse’ hisoblanaveradi. Masalan, Navoiyning quyidagi matla’sida tarse’ni ko‘rishimiz mumkin.

Ne xush kelgay ki, kelgay nozaninim,

Ne xush bo‘lgayki, bo‘lgay hamnishinim.

\*\*\*\*\*

Muruvvat barcha bermakdur, emak yo‘q,

Futuvvat barcha qilmakdir demak yo‘q.

“ Layli va Majnun” dostonidagi ba’zi parchalarda ham tarse’ni kuzatamiz.

Ko‘ngluma fazo nazimi ishq et

Jonimg‘a g‘izo nasimi ishq et.

Layli ishqin tanimda jon qil

Layli shavqin ragimda qon qil.

Dardini najotim et ilohi

Yodini hayotim et ilohi.

Ishq isidin et damumni mushkin  
Ishq o‘tidin et yuzimni rangin.

“ Farhod va Shirin” dostonidagi ba’zi baytlarda ham tarse’  
san’atidan mohirona foydalanilgan.

Yiqilsa hujra- bo‘lsun qasr obod  
Qurusa sabza –bo‘lsun sarv ozod

Harimi iffat ichra shoh ul ermish  
Sipehri ismat ichra moh ul ermish

Falak deb dard elining shohi oni  
↓ ↓  
Malak deb dard o‘ti ogohi oni

“ Farhod va Shirin” IX sinf

Necha yetgay senga mendin malolat,  
↓ ↓ ↓ ↓ ↓  
Necha kelgay manga ondin xijolat.

**6.Tashxis-** “shaxslantirish, jonlantirish” degan ma’noni bildirib  
keladi.

Jonlantirishning 2 xil ko‘rinishi mavjud bo‘lib:

1. Tashxis [shaxs bilan bog‘liq, ya’ni shaxslantirish]
2. Intoq [nutq bilan bog‘liq, ya’ni tilga kirish]

Demak, tashxisda jonsiz narsalar jonlanib, harakatga keladi yoki  
harakatlanadi.

7-sinf adabiyot darsligidagi “Sab’ai sayyor “ dostonida quyidagi tashxisni uchratamiz.

M: Yuzidin gul bargi xijil edi.  
Qaddidin sarv munfail erdi

Ya’ni yuzining go’zalligidan gulning bargi xijolat tortadi.  
Qaddining kelishganligidan sarv daraxti uyalib ketardi.

[ Gulning xijolat bo’lishi, sarv daraxtining inson singari uyalishi shaxslantirishdir ]

Yana shu dostonidan:  
Zulfidin sunbul aylabon yuz pech,  
Og’zidin g’uncha aytmay so’z hech.

Ya’ni zulfni ko’rib sunbul rashkdan yuz buralib ketadi. Og’zini ko’rgach, g’uncha uyatdan hech so’z aytolmay qoladi.

[ Sunbulning uyalishi, g’unchaning so’z aytolmay qolishi ]

Jonlantirishning 2-ko’rinishi intoq bo’lib, unda barcha jonsiz narsalar inson singari tilga kiradi.

Navoiyning “ Jong’a chun derman...” deb boshlanuvchi g’azalida boshdan oxir jonlantirishning intoq usuli mavjud. Unda jon, jism, ko’ngil, ko’z bag’ir, inson singari tilga kirib muloqot qiladi.

Jismdan so’rsamki: “ Bu zaifligingga ne erdi sabab? “  
Der: “ Anda bo’ldi sabab o’tluq bag’irning hirqati”.

Ko’ngluma qilsam g’azab, ayturki: “ Ko’zdindur “ gunah,  
Ko’rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati.

Yig‘lab aytur ko‘zki: “ Yo‘q erdi manga ham ixtiyor,  
Kim ko‘rindi nogahon ul sho‘xi mahvash tal’ati.

\*\*\*\*\*

Mutrayib andoq sinuq ko‘nglum buzulurkim,sipehr  
Bul ajab holimg‘a yuz ming ko‘z bila hayron bo‘lur

baytida mavhum tushunchani ifodalovchi ajal insonga o‘xshab  
harakat qiladi.

Navoiyning “ Layli va Majnun “ dostonida bog‘dagi gullarning  
behush yotgan Majnun holiga achinishlari quyidagicha  
tasvirlanadi:

Gul holig‘a chun nazzora aylab  
Gulgun yoqasini pora aylab.  
Nargiz shabnamdin ashk etib fosh,  
Ahvolig‘a yummayin,to‘kib yosh.  
Sumbul qilibon qora uzorin  
Ochib qaro zulfi mushk borin.  
So‘giga oqar suv zor yig‘lab,  
Un tortib-u sog‘vor yig‘lab.  
Sabza qilib o‘zni sarbasar til,  
Aytib g‘amidin fasona har til.

Yoki

Charx tong otguncha yig‘lar mehrin eldin yoshurib,  
Go‘yi ul sargashtaning ham bir musofir yori bor.

\*\*\*\*\*

Baxtim uyg‘onmas bu nafxi surdek faryod ila,  
Menki marg uyqusi bosqonlarni dermon uyg‘otay.

\*\*\*\*\*

Ikki gavharkim banogo‘shungdadur anjum kibi

Husn aro oydek yuzung oldida tutmishlar charog‘.

**7.Nido**-bu san‘atning boshqalaridan alohida xususiyati shundaki, bunda inson qalbidagi his- tuyg‘u juda kuchli qo‘zg‘alganda lirik qahramon xohlagan narsasiga xoh jonli, xoh jonsiz narsalarga inson,tabiat,jonzotlar, ko‘ngil va hokazo murojaat qiladi hamda shu orqali nidoni vujudga keltiradi.

10-sinf adabiyotida keltirilgan quyidagi baytda nidoni ko‘rishimiz mumkin:

**Ey sabo**, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,  
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

[ Ey sabo, deb tong shamolida murojaat qilyapti

\*\*\*\*\*

“Jong‘a chun dermen” deb boshlanuvchi g‘azalning maqtasida ham shoir o‘z-o‘ziga murojaat qilib nidoni vujudga keltiryapti.

Ey Navoiy, barcha o‘z uzrin dedi, o‘lguncha kuy  
Kim, senga ishq o‘ti- o‘q ermish azalning qismati.

Ya’ni bu ishq iztiroblarida hech kim aybdor emas, balki ishq senga taqdirning belgisi yoki qismatidir degan xulosaga keladi.

\*\*\*\*\*

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo  
Bulbuli yo‘q erkanin shohi suxandonimg‘a ayt.

\*\*\*\*\*

O‘zlugimning qaydidin bir may bila qilding xalos,  
Vah ne dey , **ey mug‘**, sanga but birla zunnorim fido.

[Ey mayfurush, bir may bilan meni o‘zligimdan ayirding. ]

Bu ne insof edi , ey soqiyi dahr.

O‘lar chog‘da qadah tutmoq to‘la zahr?!

\*\*\*\*\*

Buzug‘luq , **ey falak**, ko‘rguzdung oxir!

Buzilg‘on xotirimni buzdung oxir!

**8.Istiora-**( arabcha –“qarz olish”) .U ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Istiora adabiy asarda so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda, aniqrog‘i, uni haqiqiy ma‘nosi emas,balki majoziy ma‘noda qo‘llash san‘ati hisoblanadi. Bu ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqi o‘xshatish vositasi va o‘xshatish sababi qo‘llanmaydi. Tashbehda sabab va vosita ko‘rsatiladi, ya’ni bilvositalik bor. Istiorada esa to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshatiladi, ya’ni bevositalik mavjud.

10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan A. Navoiyning quyidagi baytida istioraning yaqqol ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy , tegmasin deb ko‘z,

Muhabbat tuxmudin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

[ Oy-yuzi oyga o‘xshatilgan yor, o‘t-olov ]

7-sinf adabiyot darsligida “ Sab’ai sayyor” dostonidan keltirilgan parchada biz istiorani ko‘rishimiz mumkin.

Topibon ashk-u nilufarda mamar,

Yo‘q, ajab bahr ichinda nilufar.

Mamar-o‘tish joyi, yo‘l  
ashk- ko‘z yoshi ,ya’ni ashki nilufarzorda suv yo‘li o‘zan  
topib Nilufarning dengiz-suv ichidaligi ajablanarli emas

\*\*\*\*\*

Bo‘rini dog‘i galadan dur qil }  
Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil }

\*\*\*\*\*

9-sinf adabiyot darsligida “ Farhod va Shirin “ dostonining ba’zi  
misralarida istioraga duch kelamiz.

Shabistonda tug‘di yangi bir oy

Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy.

Ya’ni

“shabiston”-tundek xoqonning hayoti ,oy- Farhod

Ochildi bog‘ida bir otashin vard

Demayki vard,balkim shu’layi dard

Bu yerda 4ta istiora bor:ochildi,bog‘,vard,shu’layi dard

Ochildi-tug‘ildi;bog‘-xoqon oilasi,vard(atirgul),shu’layi dard-  
Farhodga ishora.Bundan tashqari ushbu baytda ruju san’ati ham  
mavjud.

\*\*\*\*\*

**9.Tajnis-jinos.** Bir jinsli, jinsdosh so‘zlar bo‘lib , bir xil  
yoziluvchi, talaffuzi bir xil, ammo tirli ma’nolarni ifodalovchi  
so‘z.

Tajnis-mumtoz adabiyotda badiiy san'at tushunchasiga ega. Adabiyotshunoslikda esa tuyuq janrini shakllantiradi. Tilshunoslikda esa omonim, shakldosh so'z tushunchasiga ega. Alisher Navoiy tajnis san'atiga asoslangan tuyuq janridan samarali foydalangan. Shoirning "Badoye'ul-vasat" devoni tarkibiga 13 ta tuyuq kiritilgan. Quyida ba'zilariga e'tiborimizni qaratib o'tamiz.

Tig'i ishqing yorasidur butmagon, ( bitmagan)

Dardini hech kimga aytib butmagon (aytib tugatmagan)

Hajr sahrosidir ohim o'tidin

Anda gul yoxud giyohe butmagon . ( unmagan, o'smagan)

\*\*\*\*\*

Tajnis 2 xil ko'rinishga ega.

1. Oddiy tajnis.

2. Murakkab tajnis.

Oddiy tajnisda misralar oxirida bittadan so'z tajnisga olinadi.

Necha dedim ul sanamg'a: " Bormog'in" (bormagin)

Qilmadi ul tark oxir bormog'in. ( borishni tark etmadi)

Munchakim xudroylik ko'rgazdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in. ( barmoq)

Yuqoridagi tuyuq oddiy tajnisga misol bo'lsa, quyidagi keltiradiganimiz murakkab tajnisga misol bo'ladi:

O'tkali ul sarvi gulrux soridin,

Yo'q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.

Hajridin bog' ichra berur yodima ,

Qomatidin sarv-u, gul-ruxsoridin.

1-misra. Gul yuzli yor yonidan o'tgani;

2-misra. Sarvdek qomatli gulning yuzidan xabar yo‘q;

3-misra. Sarv –yorning qomati, gul-yorning yuzi.

\*\*\*\*\*

7-sinf adabiyot darsligidagi “ Sabai sayyor “ dostonida keltirilgan quyidagi parchada ham tajnis san’atini ko‘rishimiz mumkin:

Mehr ko‘ziga shomdek ayyom,

Mehrdek ko‘ngli o‘rtanib to shom.

Ya’ni

Mehrning ko‘ziga kunduzlar shomdek ko‘rinar,

Quyosh kabi ko‘ngli shomgacha o‘rtanardi.

1-misra-ism- Mehr } ma’nolari  
2-misra-quyosh-mehr }

Shu baytning o‘zida tazod san’atidan ham foydalanilgan.

Kecha-kunduz , shom-ayyom

**10.Ruju** –(arabcha – “qaytish”) She’riyatda shoirning misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo‘llangan badiiy tavsiriy vositasidan qaytgandek bo‘lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda,she’riy san’atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to‘ldirish usulidir.

7-sinf adabiyot darsligidagi “ Mehr va Suhayl” hikoyasida quyidagi baytda biz rujuning go‘zal namunasini ko‘rishimiz mumkin:

Bu sifat mehri olamfuruze,

Mehr yo‘q, shu’lai jahon so‘ze.

Ya’ni

Mehrga ta'rif berayotib, shunday deydi: Bu sifat bilan olamni yoritadigan bir quyoshdir deb, fikridan qaytgandek bo'ladi-yu, birdan ruju qo'yib kuchliroq ta'riflaydi: quyosh emas, jahonni yorituvchi shu'ladir.

\*\*\*\*\*

“ Farhod va Shirin” dostonida Farhodning dengiz safarini tasvirlar ekan, nahanglarni ta'riflab yozadi.

Suda yuz tog'u, yo'q biriga orom,  
Vale tog'iki, bo'lg'ay mohi andom.

Ya'ni

Avvaliga shoir “ Suvda tinim bilmas, beorom tog'lar suzib yuribdi”,- deb ta'riflar ekan “ vale”-( valekin) deb o'z tasviridan chekingandek bo'ladi va yana qaytib kuchliroq tasvir bilan uni boyitadi. Shu bilan “ baliq qiyofasida “ gi tog'larning kitlar ekanligini o'quvchi tushinib oladi.

\*\*\*\*\*

Yana shu dostonida keltirilgan :

Muz aylab yer yuzin oyina oyin  
G'alat qildim degil oinai chin.

2-qatorda 1-misradagi fikrdan tonadi , ya'ni qish paytidagi muzlagan suvlarni oynaga o'xshatadi, birdan fikridan qaytib, yana kuchliroq ifodalaydi: Xato qildim muzlar oddiy oyna emas, balki Chin ( Xitoy) oynasiga o'xshaydi, -deydi.

\*\*\*\*\*

Nigin-u la'l yo'q duri shabafro'z,  
Dema dur, gavhare, lekin jahonso'z. ( “Farhod va Shirin”)

\*\*\*\*\*

Ul o't aro bu zaifi g'amnok,

Qayti g‘amnok, balki xoshok!

Xoshok dema, shikasta mo‘re,

Joni yukidin tanig‘a zo‘re. ( “Layli va Majnun”)

\*\*\*\*\*

Kishiga o‘xshamas, go‘yo paridur,

Pari yo‘q, oftobi hovariydur. ( “Farhod va Shirin”)

\*\*\*\*\*

Vale yodig‘a bu keldikim ul oy,

Demay oy, oftobi olamoroy. . ( “Farhod va Shirin”)

\*\*\*\*\*

11-sinf adabiyot darsligida “ Saddi Iskandariy “ dostonidan keltirilgan quyidagi parchada ham rujuni ko‘ramiz:

Ikov tikdilar ko‘zni qo‘rg‘on sari,

Ne qo‘rg‘on sari, sun‘i Yazdon sari.

Ya‘ni

Iskandar bilan Aflotun ikkovlari qo‘rg‘on tomon, yo‘q, qo‘rg‘on tomon emas, Tangrining qudratiga ko‘z tikdilar.

Har yon bo‘ri posbon itidek,

Yo‘q, yo‘q ne dedim, shubon itidek. ( “Layli va Majnun”)

Bahra noz ila chu ko‘z solibon

Dema ko‘lak, bahr qo‘zg‘olibon.

} 7-sinf adabiyot

Ya‘ni

U noz bilan dengizga qarasa , to‘lqinlar dema, faqat to‘lqinlarga emas , balki dengiz qo‘zg‘aladi.

Bundan tashqari 9-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “ Farhod va Shirin” dostonida ruju san’atidan ba’zi namunalarni uchratishimiz mumkin.

Shabistonda tug‘di yangi bir oy,  
Yangi oy yo‘qki mehri olamoroy.

Bu baytda ham istiora ( bevosita o‘xshatish), ham iyhom ( bayt ma’nosining ichida yana bir yashirin ma’noning mujassamligi ), ham ruju san’ati ustuvorlik qiladi, ya’ni 1-misradan aytilgan fikrdan qaytib, shu fikrga yana kuchliroq ,2-misrada murojaat qilish orqali mohiyatan rujuni gavdalantirgan

\*\*\*\*\*

Ochildi bog‘ida bir otashin vard  
Demaykim vard, balkm shu’layi dard

\*\*\*\*\*

Nigin-u la’l yo‘q, duri shabafroz,  
Dema dur, gavhare,lekin jahonso‘z.

\*\*\*\*\*

Ne so‘z nikim, o‘qib, ko‘ngilga yozib,  
Dema ko‘ngliki, jon lavhida qozib.

\*\*\*\*\*

O‘zin abjad o‘qur eldin tutib kam,  
Dema donishki,zo‘ri dast ila ham.

**11. Husni ta’lil** - arabcha chiroyli dalillash ma’nosini bildiradi . Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror voqeaga shoirona biror sabab ko‘rsatish san’atiga “husni ta’lil “ deb yuritiladi. Navoiy she’riyatida ham boshqa ijodkorlarniki singari bu

san'atga alohida e'tibor qaratilgan. Fikrimizning dalili sifatida biz Navoiy ijodidagi husni ta'lilning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimga urg'on toshdin,  
Zahmdindir demakim, qon yig'lar ahvolimga tosh.

Ya'ni, hijron alamiga chiday olmagan oshiq o'zining ko'ksiga tosh uradi va yerga qonlar tomadi. Shoirning izohlashicha, buning sababi toshning badanga yetkazgan jarohati emas, balki oshiq qalbiga urilgan tosh uning bag'ridagi g'amning kuchliligiga chiday olmasdan qonli yosh to'kib yig'lamoqda.

\*\*\*\*\*

Charx tong otquncha yig'lar mehrin eldan yoshurib,  
Guyi ul sargashtaning ham bir musofir yori bor.

Ya'ni

Falak o'zining mehrini tong otguncha eldan yashirib yig'lashini keyingi misrani chiroyli dalil qilib tasvirlaydi.

\*\*\*\*\*

7-sinf adabiyotidagi bayt orqali Navoiy husni ta'lilning go'zal namunasini yaratgan

Yuzidin bargi gul xijil edi,  
Qaddidin sarvi munfail erdi.

Ya'ni yuzining go'zalligidan gul bargi xijolat tortar edi,  
qaddining kelishganidan sarv daraxti uyalib ketar edi.

\*\*\*\*\*

“ Sab'ai sayyor” dostonining quyidagi o'rinlarida ham husni ta'lilni ko'rishimiz mumkin:

Zulfidin sunbul aylabon yuz pech,  
Og‘zidin g‘uncha aytmay so‘z hech.

Ya’ni

Zulfini ko‘rib sunbul rashkdin yuz buralib ketadi, og‘zini ko‘rgach, g‘uncha uyatdan hech bir so‘z aytolmay qoladi.

\*\*\*\*\*

**12.Kitobot-** she’riyatimizda keng qo‘llanib kelingan . Ushbu san’at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi. Arab alifbosi to‘g‘ri, egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Ijodkorlarimiz shu shakllarga qiyosan yondashib, fikrni ifodalashda foydalanganlar. Navoiyning quyidagi ruboiysida ushbu namunani ko‘rishimiz mumkin:

Jonimdagi “jim” ikki “ dol” ingg‘a fido,  
Andin so‘ng “ alif” toza niholingg‘a fido.  
“ Nun” i dog‘i anbari hilolingg‘a fido,  
Qolgan ikki niqta ikki xolingg‘a fido.

Bu yerda Navoiy arab yozuvidagi “alif”, “jim”, “nun”, harflari orqali mahbubaning zulfiga,qaddi,qoshiga ta’rif berib,badiiy timsol yaratgan

\*\*\*\*\*

9-sinf daesligidagi “ Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism qo‘yish jarayonini ta’riflashda Navoiy kitobot usulidan foydalanadi.

Qo‘yib yuz himmat-u iqbol-u davlat.

Hamul **far** soyasidin topdi ziynat.

Ya'ni

“ Himmat “ dan “**h**” ni , “iqbol” dan “**o**” ni ( a, i, o deb o‘qish mumkin)

“davlat” idan “**d**” ni olib qo‘shsak, ” **hod**” paydo bo‘ladi. Buni “**far**” ning “soyasi“ da, ya’ni keyinga olsak, “ Farhod” so‘zi hosil bo‘ladi.


\*\*\*\*\*


**Firoq-u, rashku, hajr-u oh** ila **dard**,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.


Ya'ni

Arab alifbosida “**O**” harfidan boshqa unli tovushlar tushirib qoldiriladi. Bunda **f,r,h,o,d-** Farhod ismi hosil bo‘ladi.

Istiora

  
Tig‘i ishqing yorasidur butmagon      tajnis

  
Dardini hech kimga ochib butmagon.      tajnis

Hajr sahrosidir ohim o‘tidin,      } tajnis      husni ta’lil  
  
Anda gul yohud giyohe butmagon

Ushbu tuyuqda Navoiyning badiiy fikr ustasi va kuchli tafakkur egasi ekanligini ko‘ramiz . Chunki birgina tuyuqda ham

husni ta’lil, ham istiora, ham tajnisning go’zal namunasini ko‘ramiz.

Xuddi shunday 8-sinf darsligida keltirilgan quyidagi tuyuqda ham bir necha xil badiiy san’at namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

Ul pari ishqida bu devonani,

**Nido**

Eyki istarsan, kelib gulxanda ko‘r.

Bir qadah ul gulni xandon ayladi,

**Nido**

Ey ko‘ngil, nazzora qil, gul xanda ko‘r.

Gulxanda ko‘r, gul xanda ko‘r-tajnis

Istiora

**13. Ta’did**-bu san’atni bir necha ijodkorlar turli xil nomlar bilan ataganlar. Bu shunday san’atki, u fikriy rivojni ketma-ketlikni, ta’minlaydi. Ta’did san’atida fikrlar tadrijona usulda, ya’ni voqea -hodisalar ketma-ket rivojlanib, sanash ohangida tasvirlanadi.

Ta’did ba’zan ta’dil atamasi bilan ham yoziladi. Bunda grammatik o‘zaro bog‘lanishlarning bir xil turidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqadi. Bir xil grammatik bog‘lanishlar takrori ko‘pincha she’riy musiqani kuchaytirib keladi. 8-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Navoiyning “Deyin” radifli g‘azali ta’didning go’zal namunasi asosida yozilgan :

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin.

Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ya'ni

**Qoshning yoyligini** aytayinmi, yoki **ko'zning qaroligini** aytayinmi.

Bular o'zaro grammatik bog'lanishni shakllantiryapti

\*\*\*\*\*

Turfa holinmu deyi, qaddi niholinmu deyin,

Moviy konglak uza gul rangi qabosinmu deyin?!

Ya'ni

**turfa xoli, qaddi niholi** kabi birikmalar grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib,

ta'didni vujudga keltiryapti.

“Deyin” radifli g'azalining har bir baytida ta'did namunasi ko'zga tashlanadi:

.....  
**Ishq dardinmu** deyin, **hajri nabardinmu** deyin,

Bu qatiq dardlar aro **vasli davosinmu** deyin?!

\*\*\*\*\*

**Charx ranjinmu** deyin, **dahri shikanjinmu** deyin,

Jonima har birining **javr-u jafosinmu** deyin?!

.....  
Ta'did ( ta'dil) ning go'zal ko'rinishi Navoiyning quyidagi baytida ham mavjud.

\*\*\*\*\*

**Mehr-u Moh-u Mushtari-yu Zuhra** chun qildi tulu

Hech nahs axtar tulu'i anda qat'o bo'lmasa.

Ushbu baytda ot turkumiga mansub soʻzlar ketma-ket tadrijiy usulda sanab ketilishi mumkin: Mehr, Moh, Mushtariy, Zuhra

\*\*\*\*\*

Bundan tashqari 7-sinf adabiyot darsligida “ Sabʼai Sayyor” dostonidan keltirilgan parchada ham taʼdid namunalarini koʻrishimiz mumkin.

Ham tanu mand-u ham shujo-u daler,

Ul sifatkim jazira ichraki sher.

Ham kuchli , ham botir-u qoʻrqmas boʻlib, bu sifatlari bilan toʻqaydagi sherga oʻxshardi.

Kuchli, qoʻrqmas, botir kabi sifatlar ketma-ket tadrij usulida sanab oʻtilgan.

\*\*\*\*\*

Yana shu darslikka murojaat qilib “ Sabʼai Sayyor” dostonida taʼdid sanʼatining bir goʻzal turini koʻrishimiz mumkin:

7. Anda **dahlez-u gumbaz-u ayvon,**

Suyi andoqki **chashmai hayvon.**

Yaʼni

unda dahliz-u gumbaz-u ayvon boʻlib,

Uning suvi obihayot bulogʻidek edi.

Dahliz, gumbaz, ayvon va shu kabi ot soʻz turkumiga oid soʻzlar ketma -ket sanab oʻtilib, taʼdidni vujudga keltirsa, 2-qatorda obi hayot bulogʻi grammatik bogʻlanishni hosil qilib, taʼdid( taʼdil) ning 2-koʻrinishini hosil qilyapti.

**14. Tajohilu orif**-(arabcha -“o‘zini bilib,bilmaganga olish”). Mumtoz adabiyotdagi bu she’riy san’at shoirning aslida bilgan narsasini bilmagandek qilib ko‘rsatishi, bunda shoirning asl maqsadi biror narsaning asl holatini bilmagandek, uni boshqa biror narsaga o‘xshatish, yo ulug‘lash, yo mubolag‘a qilish bo‘ladi. Mazmun mohiyatan tilshunoslikda ritorik so‘roqqa teng keladi, ya’ni she’riy nutqda javob talab qilmaydigan so‘roq gaplardir. Navoiyning quyidagi baytida ushbu san’atni ilg‘ashimiz mumkin.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,  
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach.

Ya’ni

Yor yuzidagi qizillikning asl sababini bilmagandek bo‘lib,  
yuzingni gullar bilan bezaganmisan yoki bizni qurbon qilish  
chog‘ida qon sachraganmi tarzida ifoda etmoqda.

\*\*\*\*\*

Yana tajohilu orif san’atini uchratishimiz mumkin bo‘lgan  
Navoiyning quyidagi baytlarini ko‘ramiz:

\*\*\*\*\*

Husn xoni aro kim, yoydi qazo yuzi labing,  
Qursi xurshid bila la’li namakdonmu ekin?

.....  
G‘uncha og‘zig‘amu gulshanda yog‘ibdur jola  
Yo jamoling guli ichra labi xandonmu ekin?

\*\*\*\*\*

Bilmon ko‘ngulda xollaringning xayolidur  
Yo kipriging tikanlarin aylabsen ustuvor ?

\*\*\*\*\*

Mendin ayrilg‘on balovu dard uchunmu yig‘layin?  
Yo anglakim, boribon, ag‘yor ila qotibdi yor?

\*\*\*\*\*

Zuhd-u istig‘nomi yaxshi, yo‘qsa isyon-u niyoz?  
Shahr shayxidin bu yanglig‘ bir savolim bordur.

\*\*\*\*\*

Bargi gul uzra yopishibtur shakar har soridin,  
Yo magar la‘ling uza qaynabturur tabxolalar?

\*\*\*\*\*

Dema, hijronimda chekmaysen fig‘onu nola ko‘p,  
Jism aylarmu fig‘on bo‘lg‘on nafas jondin judo?

**15. Tanosub** –she‘r baytlarida ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san‘atidir. Masalan, sham ifodasini qo‘llasak, yonida, albatta, parvona, shu‘la, nur, so‘zlarining ishtirok etishi ham taqozo qilinadi. Yoki bir baytda “gul” so‘zi ishtirok etsa, u o‘z-o‘zidan “ tikan” ,” guliston”, “ shabnam”, “bulbul” kabi so‘zlarning bo‘lishini talab qiladi. ” Ka‘ba” esa haj, farz, tangri, ziyorat so‘zlari bilan mazmuniy bog‘lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi. 7-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning quyidagi bayti tanosub sifatida keltirilgan.

Anda bir shoh hokim -u voliy,  
Mulki ma‘mur-u himmati oliy.

\*\*\*\*\*

Ya'ni

Shoh, hokim, voliy (hukmdor), mulk va ma'mur so'zlari hokimiyat tushunchasiga tegishli bo'lganidan tanosub hosil bo'ladi.

Yana 7-sinf adabiyot darsligiga murojaat qiladigan bo'lsak, "Sab' ai sayyor" dostonining "Mehr va Suhyl" hikoyatida bir necha o'rinlarda tanosub qo'llanib, fikriy teranlikni vujudga keltirgan

Anda shohi saxiyu donishvar,  
Qabzai hukmi ichra ul kishvar.

Ya'ni shoh, hukm, kishvar ( mamlakat) tanosubni hosil qilgan.

\*\*\*\*\*

\*\*\*\*\*

Yana shu hikoyatda quyidagi tanosubni ko'rishimiz mumkin.

Ozari mash'ali jahonafroz,  
Partavi shu' lasi kelib jonso'z.

Ya'ni ushbu bayt yuzi jahonni yorituvchi mash'ala bo'lsa , undan taralayotgan nur shu' lasi jonga o't qo'yuvchi edi, kabi mazmun kasb etib, mash'ala, nur, shu' la so'zlari tanosubni shakllantirib, mazmuniy jozibadorlikni hosil qilgan.

\*\*\*\*\*

Maylini qo'yki, vola-u zor ul,  
Jon berib vaslig'a xaridor ul.

\*\*\*\*\*

**Bahr** aro ofate nechukki **nahang**,  
Besha ichra nechukki **sher-u palang**.

\*\*\*\*\*

11-sinf adabiyot darsligidagi “ Saddi Iskandariy” dostonida quyidagi bir nechta tanosub san’atlari keltirilgan o‘rinlarni uchratamiz.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Navoiy g‘azallarining ba’zi baytlarida bittagina baytning o‘zida bir nechta san’at mohirona qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz

Tanur o‘lmayin kunduz otashfishon  
Kecha shamg‘a shu’ladin yo‘q nishon.

Ya’ni otashfishon, sham, shu’la kabi so‘zlar tanosubni hosil qilsa, kecha va kunduz tazodning ( zid ma’noli so‘zlar) go‘zal na’munasini shakllantiryapti.

\*\*\*\*\*

Issig‘din nazar shamg‘a xiraliq,



Sovug‘din yonar shamg‘a tiyralig‘

Bu misrada tanosub san’ati bilan birga issiq-sovuq so‘zlari-tazodni, misralardagi ohangdoshlik esa tarse’ni vujudga keltirgan.

Masalan: Issiq nafar xiraliq‘,



Sovuq yonar tiyralig‘.

11-sinf darsligidan yana bir misol:

Raiyatg‘a sendin yetib shodlig‘

Mamolikka yuz qo‘ysa obodlig‘

\*\*\*\*\*

Ul o‘t o‘chgach-o‘q o‘chti bu **sham** ham,

Taaqqul anga bo‘lmadi jam ham.

\*\*\*\*\*

**16.Intoq-**“so‘zlatish” ,”gapirtirsh” ma’nosidagi intoq san’ati badiiy asarda hayvonlar yoki, jonsiz narsalarni odamlarga o‘zlashtirib so‘zlatishni nazarda tutadi. Tashxis ham intoq kabi jonlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda jonsiz narsa buyumlar inson singari jonlansa , harakatlansa, intoqda esa inson singari nutqlanadi, tilga kiradi.

Alisher Navoiyning “ Lison ut –tayr” dostonida qushlar odamlar kabi so‘zlatilgan. Masalan, tovus:

Men qushemen qasri gulshan ziynati,

Naqshu rangim ahli olam hayrati.

Suratim gulshang‘a oroyish durur.

Hay’atim ko‘rganda osoyish durur,-

desa, burgut:

Manga holat o‘zga qushlardek emas,

Qumri-yu bulbuldek el vafim demas.

Savlatim mufritdir-u qahrim yamon,

Tog‘ mulki ichra menmen qahramon.

5-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “ Hayrat ul –abror “ dostonidagi “Sher bilan Durroj “ hikoyasida ham intoq san’atidan namunalar keltirilgan, ya’ni Sher, Durroj inson singari muloqotga kirishib, so‘zlashadi:

Sherning tilidan:

Dediki: mendin sanga yo‘q qasd-u kin,

Emin o‘l-u men dog‘i amin.

Vahmni qo‘y hamdam-u hamrozim o‘l,

Aysh-u tarab vaqti navosozim o‘l.

Durroj tilidan:

Qichqiribon dom aro ul mubtalo,

Necha dedi: “ Dod! Meni tuttilo!”

\*\*\*\*\*

**17.“Tamanni”** “-“ orzu qilish” ma’nosini ifodalovchi bu badiiy usul, she’rda lirik qahramonning u yoki bu tilagi-tamannosini ifodalashni nazarda tutadi. Ko’pincha bu orzu asarning dastlabki misralarida bayon qilinib, keyingi baytlarida uning mohiyati chuqurroq ochiladi, lirik qahramonning ichki kechinmalari , musaffo istaklari yorqinroq aks ettiriladi. Navoiyning quyidagi baytidan namuna keltiramiz:

Ochmag‘ay erdi jamoling olam aro koshki,

Solmag‘ay erdi bori olamda g‘avg‘o koshki.

\*\*\*\*\*

9-sinf adabiyot darsligida “ Farhod va Shirin” dostonidan Shirinning Farhodga yozgan maktubida ham tamanni’ san’atining ajoyib ifodasini ko‘rishimiz mumkin:

Xiroming chog‘i yo‘ldosh o‘lsam erdi,

Sukuning vaqti qo‘ldosh o‘lsam erdi.

Ayog‘ sunsang bo‘lib g‘amgin xaroshing,

Mudom o‘lsa erdi qo‘ynimda boshing.

Tikon kirsafing‘a kiynasidin,

Chiqorsam erdi kiprik ignasidin.

Yoki Shirinning Mehrinbonuga aytgan so‘zlarida ham bu san‘atni uchratishimiz mumkin:

Ki jismim bo‘lsa o‘t ichra nobud,

Sochimdek chiqqay ondin chirmanib dud.

\*\*\*\*\*

Manga Farhod ishqiy tuhmati bas

Ki, chehra ko‘rmayin ul zor-u bekas.

\*\*\*\*\*

**18.Mukarrar-** “qayta-qayta, ust-ustiga” ma’nolarini ifodalovchi lafziy san‘at turi bo‘lib, baytning har ikki misrasida juft so‘z qo‘llashni nazarda tutadi.

Fikrimizning dalili sifatida 9-sinf adabiyot darsligida “ Farhod va Shirin” dostonidan quyidagi mukarrar san‘ati ketirilgan parchani ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Bu bo‘lgay dard-u ishq oyini, vah-vah?!

Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah?!

\*\*\*\*\*

7-sinf adabiyot darsligida “ Sab‘ai sayyor” dostonidan berilgan parchada ham mukarrar san‘atining o‘ziga xos namunasi keltirilgan:

Dedi o‘ziga yig‘lab achig‘-achig‘,

Ki: “ Achig‘ yig‘lamoq manga ne asig‘.

\*\*\*\*\*

Alisher Navoiy san‘atning she‘rdagi ahamiyatiga alohida e‘tibor bergani tufayli o‘z g‘azallarida ham, dostonlarida ham juft so‘zlarni ko‘p qo‘llaydi. Shoir g‘azallarini kuzatar ekanmiz, juft so‘zlar:

**Dam-badam** ko‘nlim berib jon naqdi istar vaslini

**Olooh-olloh** telba ko‘nglimning ajab savdosi bor

baytidagi ikki misra o‘rtasida

yoki

Ayshu ishrat jomidan bo‘lsun yuzi **gul-gul**, valek

Ko‘ngliga g‘am gulbunidin **xor-xore** bo‘lmasun

misralari oxirida mohirona qo‘llanganini ko‘ramiz.

Yana 9-sinf adabiyot darsligiga e‘tiborimizni qaratamiz va “ Farhod va Shirin” dostonidagi parchadan mukarrar san‘atiga namuna keltiramiz:

Bu so‘zlarni debon azm ayladi bot,

Sipahlar tortibon **hayhot-hayhot!**

\*\*\*\*\*

Yoki

Dedi:-“Ne hol erur, **hayhot-hayhot**

Netar jonimni olsang, ey ajal, bot ?!

\*\*\*\*\*

Chu bu sho‘robag‘a yetti nihoyat,  
Dedi **achchig‘-achchig‘** yig‘lab bog‘ayot

\*\*\*\*\*

Debon ”-Ey rishtayi jonimg‘a payvand!  
Uzorin aylasa **parkand-parkand**.

\*\*\*\*\*

Kemalarni tengiz aro surdi, | 7-sinf adabiyot “ Sab’ ai sayyor”  
Shiddatin **lahza-lahza** oshurdi. | dostoni

\*\*\*\*\*

Bor edi anda **guna-guna** shajar, | 7-sinf adabiyot “ Sab’ ai sayyor”  
Gul yo‘q edi bag‘ayri nilufar | dostoni

\*\*\*\*\*

**19.Raddi matla’**, asosan, “matlani takrorlash “ degan ma’noni bildiradi.Ushbu san’at ko‘pincha g‘azalning birinchi misrasini asar oxirida takrorlashni nazarda tutadi.

Masalan, 8-sinf adabiyot darsligidagi “ Deyin” radifli g‘azali ham shu usulda yozilgan:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin, / matla’

Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko‘zining vasfini, et,

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?! / maqta’

\*\*\*\*\*

Alisher Navoiyning quyidagi baytlarida ham raddi matla'ning namunasini ko'ramiz:

Soqiyo, hijron tunidur, boda tut, / matla'

Ul quyosh birla bu shomimni yorut.

Bo'ldi furqatdin Navoiy tiyraro'z,

Soqiyo, hijron tunidur, boda tut. / maqta'

\*\*\*\*\*

Raddi matla'ning yana bir ko'rinishi borki, unda g'azal oxirida birinchi misra to'liq emas, balki qisman qaytariladi. Shu o'rinda yana Navoiy ijodiga murojaat etamiz:

Holima yor tarahhum qilmas misrasi g'azal oxirida

Ko'nglima yor tarahhum etmas deb takrorlanadi.

**20.Savol-u javob.** Bu san'at arabcha so'zdan olingan bo'lib, baytni ikki kishining savol va javobi tarzida shakllantirishdir. Savol-u javob san'ati bayt doirasidan chiqishi, ya'ni birinchi bayt savol, ikkinchisi esa javob tarzida shakllanishi ham mumkin.

She'r misralarida ikki shaxs, ko'pincha oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi savol- javobni aks ettirish usulidir. 8-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning "Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?..." deb boshlanuvchi g'azali boshdan oxir savolu javob san'ati asosida yozilgan:

Jong'a chun dermen: "Ne erdi o'lmaking kayfiyati?"

Derki: "Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati".

Yoki

Jismdan soʻrsamki: “ Bu zaʼfinggʻa ne erdi sabab?”

Der: “ Anga boʻldi sabab oʻtluq bagʻirning hirqati”.

Koʻzga chun dermenki: “Ey tardomani yuzi qaro,

Sendin oʻlmish telba koʻnglumning balo-yu vahshati”.

\*\*\*\*\*

Savol-u javob sanʼatini nafaqat lirik-janrda, balki adabiy dostonlarda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, 9-sinfda keltirilgan “ Farhod va Shirin” dostonida bosh qahramon Farhod va shoh Xusravning munozarasi boshdan oyoq savolu javob sanʼati asosida ifodalangan:

Dedi:- “Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!”

Dedi:- “Majnun vatandin qayda ogah?”

Dedi:- “Nedur sanga olamda pesha?”

Dedi :- “Ishq ichra majnunluq hamesha”.

Dedikim :-” Ishq oʻtidin de fasona!”

Dedi : -“Kuymay kishi topmas nishona”.

**21. Jam va taqsim** –( “toʻplash va taqsimlash” maʼnosida) adabiy sanʼatlardan biri boʻlib, narsa va tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarni maʼlum belgi asosida toʻplab, keyin ularni boshqa bir belgi asosida taqsimlash demakdir.

10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan.

“ Meni men istagan ...” deb boshlanuvchi gʻazalning 3-4 baytida bu sanʼatning goʻzal koʻrinishi koʻzga tashlanadi.U “

hur-u pari” so‘zlari hamda “ ul” va “bu” olmoshlari ishtirokida sodir bo‘lmoqda. Olmoshlar ularning barchasiga tegishli. Buni quyidagi holatda ko‘ramiz:

Ayon ul (hur) zahr chashm aylab, nishon bu (pari ) no‘shxand etmas.

Yoki

Ayon ul ( pari) zahr chashm aylab, nihon bu ( hur) no‘shxand etmas.

Ushbu g‘azalning keying bayti ham jam va taqsim san’atini vujudga keltirgan:

\*\*\*\*\*

Kerakmas oy ila kun shaklikim husn-u malohatdin

Ichim ul chok-chok etmas, jonim bu band –band etmas.

\*\*\*\*\*

Yana Navoiy g‘azallariga murojaat qilamiz:

\*\*\*\*\*

Har ne shah maqsudidur-darveshning mardudidur,

Ko‘r nedur himmat munga, ne nav erur holat anga.

\*\*\*\*\*

Bevafolar qadd-u mujgonini ko‘p qilmang xayol.

Kim biri **tuz o‘qdurur**, bu bir **itik paykon** erur.

\*\*\*\*\*

Tun-u kun deb istamang har lahza zulf-u yuzlarin,

Kim bu bir **dudi balo**, ul **shu'layi hijron** erur.

\*\*\*\*\*

**22. Tasdir** badiiy san'atning eng ko'p tarqalgan, so'zlar takroriga asoslangan turi. Bu san'atning mohiyati shunday:

Baytni boshlagan so'z misra oxirida qayta takrorlanadi. Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn ( yoki shu ruknning baholanishi ) sadr. Keyingi misra oxirgi rukni ( yoki shu ruknning oxiri) esa ajuz deb yuritiladi. Shunga ko'ra, bu san'atni " radd ul-sadr ilal –ajuz ( sadrini ajuzda qaytarmoq) nomi bilan ham atash mumkin. Tasdiralar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

a) sodda

b) murakkab

1. Sodda tasdir bitta so'zning takroriga asoslanadi.
2. Murakkab tasdir ikkita so'zning takroriga asoslanadi.

Sodda tasdirning o'zida bir necha xil ko'rinish bor. Tasdirida so'zlar hech qanday o'zgarishsiz ifoda etiladi. Shakl jihatdan ham, ma'no jihatdan ham ayni so'zning takroridan iborat bo'ladi.

O'ksudi el mayli mendin, bir yo'li ey dard-u g'am,

Goh-gohi siz bori boshimdin qadam o'ksutmangiz

\*\*\*\*\*

Gul chog'i yori safar aylab Navoiy jonig'a,

Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi gul

\*\*\*\*\*

Nechakim bo‘lsun chuchuk shirin takallum so‘z

Lekin ermas ul kalomi shakkaf shondin chuchuk

**23.Amr va nahi-** bu san‘at turi “ buyurish va man qilish “ ma’nosini ifodalab , she’rda lirik qahramonning kimgadir yoki nimagadir buyurish yoki biror narsadan foydalanish tarzida o‘z ichki kechinmalarini bayon etishni nazarda tutadi.

Navoiyning “ Qaro ko‘zum...” deb boshlanuvchi g‘azalida quyidagi amrni ko‘ramiz:

Qaro ko‘zum kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,

Ko‘zim qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Shuni ta’kidlash joizki, A.Navoiyning “ Qaro ko‘zum...”deb boshlanuvchi g‘azali boshdan oxir amr va nahiyni amr ko‘rinishida ifodalangan. Bu bilan biz Navoiyning yuksak san’atkorona iste’dodini ko‘rishimiz mumkin.

Yana shu g‘azaldan:

Yuzing gulig‘a ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

\*\*\*\*\*

Navoiyning quyidagi baytida ham amr yoki undashni uchratamiz:

Nozaninlar, benavolarg‘a tarahhum aylangiz,

Juft agar yo‘qtur, g‘azab birla takallum aylangiz.

8-sinf adabiyot darsida keltirilgan navbatdagi g‘azallarning ba’zi baytlarida ham amrning go‘zal ifodalari mavjud:

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,  
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

\*\*\*\*\*

10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Navoining “ Ey sabo...” deb boshlanuvchi g‘azali ham boshdan oyoq amr san’ati asosida shakllantirilgan:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromoning‘a ayt,  
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandoning‘a ayt.

\*\*\*\*\*

Dahr bog‘i gullari husning vafosiz erkanin,  
Yuzi gul, jismi suman ko‘yi gulistonig‘a ayt

\*\*\*\*\*

11-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “ Saddi Iskandariy” dostonining quyidagi baytida amrning go‘zal ifodasini ko‘ramiz:

Oling ayshdin umrning komini  
Tutung xush yigitlikning ayyomini.

\*\*\*\*\*

5-sinf adabiyot darsligida keltirilgan,  
Olam ahli bilingiz, ish emas, dushmanlig‘  
Yor o‘lung bir-biringizgakim erur yorlig‘ ish,- kabi misralarida ham amr san’ati mujassam.

\*\*\*\*\*

Ba'zan bir baytning o'zida ham amr, ham nahiyni uchratishimiz mumkin:

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag'mosidin.

Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo'l

1-misra nahiyy | 8-sinf adabiyot

2-misra amr |

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini et

Qosh-u yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin.

1-misra nahiyy | 8-sinf adabiyot

2-misra amr |

\*\*\*\*\*

Nahiyya misol:

Vatan tarkini bir nafas aylama, | 11-sinf adabiyot

Yana ranj-u g'urbat havas aylama | "Saddi Iskandariy" dostoni

\*\*\*\*\*

Yilon jayb aro solmoq etma havas | 11-sinf adabiyot

Kim oxir yilondur bu tasbeh emas | "Saddi Iskandariy" dostoni

\*\*\*\*\*

**24.Balog'at** .Bu san'at baytlarda kam so'z qo'llash orqali ko'p ma'noni chiqarish mahoratidir.

Masalan , Navoiyning " Bo'ldim sanga" radifli g'azalida:

"Qay pari paykarg'a , -dersen, -telba bo'lding bu sifat

Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga bo‘ldim sanga

bayti orqali “ qaysi pariga o‘xshash qomatli go‘zalga bunday darajada oshiqi devona bo‘lib qolding?” –deb so‘rasang , -Ey pariqomatligim, menga nima qilsang qilki, men seni sevib, devonang bo‘lib qoldim,” -singari fikrni “ bo‘ldim sanga “ so‘zi orqali keltiradi.

**25.Tamsil**-arabcha - “misol keltirish”, “dalillash,” –degan ma’nomalarni bildirib, she’rda ifodalangan fikrni hayotiy misollar yordamida dalillash, tasdiqlash, izohlash. Tamsil mazmun va mohiyati jihatdan irsoli masal san’atiga o‘xshash, faqat undan farqli o‘laroq, fikr dasdig‘i uchun misol hayotning o‘zidan olinadi. Agar irsoli masalda fikr tasdig‘i uchun xalqning ming yillik tajribasini o‘zida mujassam etgan maqollarga tayanilsa, tamsilda ko‘proq shaxsiy tajriba , hayotiy kuzatishlarga asoslaniladi. Tamsil o‘xshatish asosida voqelanadi, chunki aytilayotgan fikr yoki tasvirlanayotgan holat va uning tasdig‘i uchun keltirilayotgan hayotiy misol mohiyatida o‘xshashlik bor.Biroq o‘xshatishdan farqli ravishda tamsilda o‘xshatish vositalari ko‘rsatilmaydi, fikr parallel beriladi-da , ular orasidagi o‘xshashlik, bog‘liqlik aloqadorlikni anglab olish o‘quvchining o‘ziga havola etiladi. A. Navoiyning quyidagi mashhur qit’asida fikrni dalilash uchun mohirona tamsil qo‘llangan:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,

Chekma mehnatkim,latif o‘lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang tarbiyat,

It bo‘lur dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

\*\*\*\*\*

Qit'aning birinchi baytida shoir tarbiyada nasl hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun " nokas-u nojins " lar avlodini odam qilaman deb urinish befoyda, degan asosiy fikrni aytadi,so'ngini asoslash uchun kuchuk bilan ho'tikni qancha tarbiyalasang ham, odam bo'lib qolmaydi tarzidagi hayotiy misolni keltiradi.

\*\*\*\*\*

Yana Navoiy ijodiga murojaat qiladigan bo'lsak quyidagi fardida ham tamsilning yaqqol ifodasini ko'rishimiz mumkin:

Kishi aybing desa dam urmag'ilkim,ul erur ko'zgu,  
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi o'zga aybing zohir aylarmu?

\*\*\*\*\*

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh.

\*\*\*\*\*

Sovug' ohekim chekarmen, garm o'lur o'qmoqqa ashk,  
Chashmalarda suv bo'lur, issig' havo bo'lg'och sovuq.

\*\*\*\*\*

Itlaring g'avg'o qilur go'yo Navoiy o'ldikim  
Boshi uzra jam o'lub afg'on qilurlar yor-do'st.

\*\*\*\*\*

Ne chamandur buki hasrat suyi-yu dard o'tidin  
Parvarish topmish qayu bir guldakim bor ob-u tob.

Navoiy ta'biricha, dard o'ti va hasrat suvidan hamma joy chaman bo'ldi, go'yoki qayerda suv me'yorida bo'lsa, gullar yashnaganidek.

\*\*\*\*\*

Bu kun ohinmdin o'shal bad mehr ko'ngli yumashgay

Nechakim po'lod erur qattiq, topar gudoz.

**26.Iyhom** –arab tilida “ shubhaga solish” ma'nosini bildiradi. Mumtoz adabiyotda esa iyhom haqiqiy va majoziy ma'nolarga ega yoxud shaklan bir ma'no jihatdan har xil bo'lgan ( jinsdosh) so'z yoki so'z birikmalarini she'riyatda qo'llagan holda, bir baytda ikki xil ma'noni ifoda etish san'atidir. Masalan, Navoiyning :

Bosh qo'yay dedim oyog'i tufrog'iga, dedi: “Qo'y”,

Bo'sa istab la'li rangin so'rdim, ersa dedi: “ Ol”

misralarining birinchisidagi “ Qo'y “ so'zini ikki ma'noda : mayli, “qo'yaqol” hamda “qo'y kerakmas” ma'nosida tushunish mumkin. Shunga ko'ra misra mazmuni ham musbat, ham manfiy ma'noda anglashiladi. Ikkinchi misradagi “ rangin” so'zi ham “ rangini “ hamda “qizil” ma'nosini, “ ol so'zi ham “ola qol “ va “ qizil “ ma'nosini anglatadi. Ya'ni misrani “ Bo'sa istab, labi rangini so'rasam, “ qizil” dedi hamda “ Bo'sa istab , la'ldek qizil labini tilasam, ola qol dedi” ma'nosida tushunish mumkin.

\*\*\*\*\*

Navoiydan yana iyhom san'ati ustuvorlik qilgan shunday baytni keltirish mumkin.

Labingni so‘rgali muhri sukut og‘zima tushmish

Ki ul shakkar bila ernim bir-biriga yopishur.

Bunda “ so‘rgali” so‘zining yaqin ma’nosi “ so‘ramoq” bo‘lsa, uzoq ma’nosi “ so‘rmoq”, ya’ni “ bo‘sa olmoqdir”.

\*\*\*\*\*

La’l emas, shirin labingkim, jon topar andin hayot,

Kim so‘rub bildim: ul ermish la’lgun qilg‘on nabot.

Ushbu baytning ikkinchi misrasida iyhom mohirona tasvirlab berilgan.

\*\*\*\*\*

Kishi aybing desa **dam urmog‘il kim**, ul erur ko‘zgu,

Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi o‘zga aybing zohir aylarmu?

\*\*\*\*\*

Quyoshim har sorig‘a azm qilsa, zarrai qolmon,

Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin kun ko‘ra olmon.

\*\*\*\*\*

Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,

Ajab **saodat** erur chiqsa yaxshilik bila ot.

Ya’ni

“ Chiqsa” ,“ ot” so‘zlari birikmasini ikki ma’noda “ nomi chiqsa”, shuningdek,” **o**, **t** ( harflari) chiqib ketsa “ tarzida anglash mumkin. Misra mazmunini “ o, t chiqib ketsa ajoyib saodat bo‘ladi tarzida tushunib, “ saodat” so‘zidagi “o va t”

harflari chiqib ketsa arab yozuvidagi “ Sa’d” so‘zi hosil bo‘ladi va muammo yechiladi.

**27.Irsolu masal**-“maqol kiritish” ma’nolarini bildirib, she’riy misralarda ifodalanayotgan biror fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san’ati sanaladi.Masalan, Navoiy she’riyatida buning isbotini yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

O‘qlaring ko‘ngluma bo‘ldi soching zulm ichra yoshirmoq ne sud,

Mushk isin yoshursa bo‘lmas, bu masal mashhur erur.

\*\*\*\*\*

7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “ Sabbai Sayyor” dostonida Suhayilning tilidan aytilgan quyidagi baytda irsoli masal namunasi ko‘rishimiz mumkin:

Har kishikim birovg‘a qozg‘oy choh

Tushgay ul choh aro o‘zi nogoh.

\*\*\*\*\*

Lek haqkim balo bermish

Dard bermish,vale davo bermish.

**28.Tasbe**- she’riyatda eng ko‘p tarqalgan turlaridan bo‘lib, birinchi misra oxiridagi so‘z ikkinchi misra boshida takrorlanadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, 1-misraning oxiridagi so‘z bilan boshlangan 2-misrani o‘qiganda ular o‘rtasidagi bo‘liqlik haqida kishi beixtiyor o‘ylab ketadi. Masalan, Navoiyning tasbening go‘zal namunasi keltirilgan baytini ko‘ramiz:

Zaqaning **choh-u** aning ostida xol,

**Chohning** nuqtasi, ey no‘shin lab.

\*\*\*\*\*

Xanjari hijron bila oxir kesar chun **rishtasin**.

Mehr tori **rishtasi** joningga mahkam bo‘ldi tut.

\*\*\*\*\*

7-sinf adabiyot darsidagi “Sabbayi sayyor” dostonidan parchada tashbehni ko‘rishimiz mumkin:

Birida sencha ko‘r madim **jur’at**

**Jur’ating** bo‘ldi maxlasingg‘a jihat.

Ya’ni

Heh birida senchalik jur’at ko‘r madim.

Jur’ating xalos bo‘lishingga sabab bo‘ldi.

\*\*\*\*\*

Jamolidin ko‘ringach, farri shohi

Bu fardin yorudi moh to ba moh

## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.5-sinf adabiyot darsligi.” Sharq “nashriyoti Toshkent 2020 –y
2. 6-sinf adabiyot darsligi “Ma’naviyat “ nashriyoti Toshkent-2017-y
3. 7-sinf adabiyot darsligi .” Sharq “nashriyoti Toshkent 2027 –y
4. 8-sinf adabiyot darsligi .” G‘afur G‘ulom “nashriyoti Toshkent 2019 –y
5. 8-sinf adabiyot darsligi .” G‘afur G‘ulom“ nashriyoti Toshkent 2014 –y
6. 9-sinf adabiyot darsligi .” Yangi yo‘l poligraf servis.Toshkent 2014 –y
7. 9-sinf adabiyot darsligi .” O‘zbekiston” nashriyoti Toshkent 2019 –y
8. 10-sinf adabiyot darsligi.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2017 –y
9. 11-sinf adabiyot darsligi.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2018 –y
- 10.She’riy san’atlar va mumtoz qofiya “ Sharq “ nashriyoti Toshkent 1998 –y
- 11.Adabiyotshunoslik lug‘ati “Akadem “ nashr Toshkent 2013 –y
- 12.”Xazoyinul- maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar” A. Navoiy 1 tom Toshkent 1963 –y
13. A. Navoiy ”Vafo qilsang” .” G‘afur G‘ulom“ nashriyoti Toshkent 2004 –y
14. Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risidagi 187-qaror .2017-yil 6-aprel
- 15.Ziyonet.uz, aim.uz
- 16.uzedu.uz

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1.Tardi aks .....	4
2.Tazod .....	5
3.Talmeh .....	9
4.Ishtiyoq .....	11
5.Tarse' .....	14
6.Tashxis .....	15
7.Nido .....	18
8.Istiora .....	19
9.Tajnis .....	20
10.Ruju.....	22
11. Husni ta'lil .....	25
12.Kitobot .....	27
13.Ta'did.....	29
14.Tajohilu orif .....	32
15.Tanosub.....	33
16.Intoq .....	36
17.Tamanni' .....	37
18.Mukarrar .....	38
19. Raddi matla' .....	40
20.Savol-u javob .....	41
21.Jam va taqsim .....	42
22.Tasdir .....	44
23.Amr va nahiy .....	45
24.Balog'at.....	47
25.Tamsil .....	48
26.Iyhom.....	50
27.Irsoli masal.....	52
28.Tasbe.....	52
Foydalanilgan adabiyotlar .....	54

## NAVOIY SHE'RIYATINING BADIYYATI

### Ta'lim muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilari uchun metodik qo'llanma

*Muharrir:* A. Qalandarov  
*Texnik muharrir:* G. Samiyeva  
*Musahhih:* Sh. Qahhorov  
*Sahifalovchi:* M. Ortiqova

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 27.07.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 3,5. Adadi 100. Buyurtma №239.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ  
“Durдона” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45